




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

VOLUME | 3 ISSUE | 7 DECEMBER 2025



AN ACADEMIC PLATFORM FOR IN-DEPTH
ANALYSIS OF THE CONTEMPORARY WORLD

VOLUME | 3 ISSUE | 7 | DECEMBER | 2025



JCWS


MAHALLADA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATI ORQALI O‘ZINI O‘ZI BAND QILISHINING HOZIRGI HOLATI

¹ Nizametdinov Ali, ² Kerim Keskin

¹ Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o‘qituvchisi

² Bilkent University, Anqara, Turkiya

e-mail: alwaysberich@gmail.com



Accepted Date:

December 15, 2025,

Published Date:

December 25, 2025

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

ANNOTATION:

Mahallada aholining tadbirkorlik faoliyati orqali o‘zini o‘zi band qilishining hozirgi holati atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik va yakka tartibdagi mehnat faoliyatining aholi bandligini ta‘minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar ko‘rib chiqilgan. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, imtiyozlar va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan. Maqola xulosalari mahalla darajasida bandlikni oshirish va aholi farovonligini ta‘minlashga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

KEYWORDS:

mahalla, tadbirkorlik, o‘zini o‘zi band qilish, aholi bandligi, kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, yakka tartibdagi mehnat, daromad, ishsizlik, ijtimoiy barqarorlik, mahalliy iqtisodiyot, davlat qo‘llab-quvvatlashi, mikromoliya, iqtisodiy faollik, farovonlik.

Kirish

O'zbekiston mehnat bozorida so'nggi yillarda kuzatilayotgan asosiy tendensiyalardan biri – o'zini o'zi band qilgan shaxslar sonining tobora ortib borishi hisoblanadi. Mamlakat aholisi jadal o'sishi, ishchi kuchining yil sayin ko'payishi va rasmiy ish o'rinlarining yetarli darajada yaratilmayotgani natijasida ko'plab fuqarolar mustaqil tarzda mehnat faoliyati

bilan shug'ullanishga o'tmoqda. Bu jarayon mehnat munosabatlari tarkibida norasmiy sektor ulushining ham o'sishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa pandemiya davri (2020–2021 yillar), raqamlashtirish jarayonlari va davlat tomonidan “o'zini o'zi band qilish” yuridik maqomining soddalashtirilishi ushbu toifani kengayishiga turtki bo'ldi.

1-jadval

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlarning ish bilan bandlar tarkibidagi ulushi dinammikasi

Yil	Umumiy band aholi soni (mln kishi)	O'zini o'zi band qilganlar (mln)	Ulushi (%)
2020	13,6 mln	1,1 mln	8,0 %
2021	13,9 mln	1,3 mln	8,9 %
2022	14,1 mln	1,6 mln	9,1 %
2023	14,3 mln	2,9 mln	20,0 %
2024	14,5 mln	3,0 mln	20,3 %

Asosiy qism

2020–2024 yillar davomida O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlar ulushi yil sayin ortib borayotgani kuzatiladi. Agar 2020 yilda ularning umumiy band aholi tarkibidagi ulushi 8,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 30,3 % ga yetgan. Demak, so'nggi besh yil mobaynida o'zini o'zi band qilganlar ulushi taxminan 3,5 barobarga o'sgan. Ushbu o'sish mehnat bozorida muayyan strukturaviy o'zgarishlar ketayotganini anglatadi.

O'zini o'zi band qilish ko'rsatkichining o'sishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda:

- rasmiy ish o'rinlari yetarlicha yaratilmasligi;
- pandemiya davrida mehnat migratsiyasi imkoniyatlarining cheklanishi;
- raqamli iqtisodiyot va frilans sohalarining rivojlanishi;
- davlat tomonidan ro'yxatdan o'tishni soddalashtirish va soliq

imtiyozlarining berilishi.

Tendensiyaning ijobiy jihati shundaki, o'zini o'zi band qilgan fuqarolar iqtisodiyotga jalb qilingan bo'lib, rasmiy sektordan tashqarida bo'lsa-da, faoliyat yuritmoqdalar va ularni legallashtirish bo'yicha harakatlar axamiyat kasb etmoqda. Bu aholi mehnat faolligini saqlab turish, kambag'allikni qisqartirish hamda kichik iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishda ijobiy rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, ushbu toifadagi shaxslar daromadlarining barqaror emasligi, ijtimoiy himoya va mehnat kafolatlarining zaifligi, kasbiy mahorati past darajada bo'lgani sababli iqtisodiy samaradorlik past bo'lishi mumkin. Agar tegishli choralar ko'rilmasa, mehnat bozorida norasmiy o'zini o'zi band qilganlar ulushi yanada ortib ketishi xavfi bor.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar ijtimoiy muhofazadan ham foydalanishlari uchun ularning ijtimoiy soliq to'lovlari

tizimi yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy soliq to'lovi mehnat stajini hisoblash va pensiya ta'minotida asosiy omil hisoblanadi. Biroq amalda aholining bu toifasi orasida ijtimoiy soliq to'lovi past darajada ekanligi kuzatilmoqda.

2021 yilda 1.3 million nafar o'zini o'zi band qilgan shaxslardan atigi 10 foizi (130 ming nafar) ijtimoiy soliq to'lagan. Bu ko'rsatkich 2022 yilda 1,6 millionga yetgan

bo'lsa-da, ijtimoiy soliq to'lovchilar ulushi 13 foizga (208 ming nafar) ko'tarilgan. 2023 yilda o'zini o'zi band qilganlar soni 2,9 millionga oshdi va ijtimoiy soliq to'lovchilar soni 435 ming nafarga (15%) yetdi. 2024 yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 3 millionga yaqinlashib, ijtimoiy soliq to'lovchilar soni 510 ming (17%) kishini tashkil etgan.

2-jadval

O'zini o'zi band qilganlar va ijtimoiy soliq to'lovchilari soni dinamikasi (2021–2024)

Yil	O'zini o'zi band qilganlar soni	Ijtimoiy soliq to'lovchilar ulushi	Ijtimoiy soliq to'lovchilar soni
2021	1,3 mln	10 %	130 ming
2022	1,6 mln	13 %	208 ming
2023	2,9 mln	15 %	435 ming
2024	3,0 mln	17 %	510 ming

Shu bilan birga, to'rt yillik tendensiya shundan dalolat bermoqdaki, ijtimoiy soliq to'lovchilar soni nisbatan o'sib borayotgan bo'lsa-da, umumiy o'zini o'zi band qilganlar soniga nisbatan ulushi hanuz past darajada qolmoqda.

Bu holatning asosiy xavfi — ijtimoiy soliq to'lamaydigan ko'pchilik aholi qatlami kelgusida pensiya ta'minotisiz qolishi, ya'ni kambag'allik xavfining kuchayishidir. Agar bu tendensiya o'z vaqtida bartaraf etilmasa, aholi turmush sifatiga ham, davlat ijtimoiy siyosati samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bu yerda masalaning ikkinchi jihati ham mavjud bo'lib, ayrim shaxslar rasmiy ravishda o'zini o'zi band sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa-da, amalda bu maqomdan faqat “qonuniy ro'yxatda turish” uchungina foydalanadi. Ular uchun ijtimoiy soliq to'lashdan ko'ra, daromadlarni yashirish va soliqdan qochish foydali deb hisoblanadi. Bu holat esa iqtisodiyotning “yashirin sektor”ini kuchaytirib, davlat budjetiga soliq tushumlarining kamayishiga va

ijtimoiy sug'urta tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu ma'noda, “soxta o'zini o'zi band qilgan shaxslar” atamasi aynan shunday holatga tegishli bo'lib, ular rasmiy maqomdan faqat yuridik afzallik sifatida foydalanishadi, ammo davlat belgilagan soliq va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishdan chetlanishadi. Bu esa institutning haqiqiy maqsadi – aholining qonuniy mehnat bozoriga kirishi va ijtimoiy himoya bilan qamrab olinishini to'liq ta'minlamaydi.

Agarda bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, ko'pgina mamlakatlarda o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun soliq to'lash hamda ijtimoiy sug'urta tizimida majburiy ishtirok etish amaliyoti majjudligini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish tizimini samarali yo'lga qo'yish uchun nafaqat ro'yxatdan o'tkazish, balki ijtimoiy soliq to'lashning manfaatli va majburiy mexanizmlarini kuchaytirish, aholini kafolatli ijtimoiy ta'minotning

ahamiyatiga ishonirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zini o'zi band qilganlar uchun bir nechta muhim imtiyozlar mavjud bo'lib, ular, avvalo, ro'yxatdan o'tish jarayonining soddalashtirilishi va soliq to'lovlaridan ozod etilish shaklida namoyon bo'ladi.

Ro'yxatdan o'tishning soddalashtirilishi. O'zini o'zi band qilish maqomiga ega bo'lish uchun fuqarolar "Soliq" mobil ilovasi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali onlayn tarzda bepul ro'yxatdan o'tadilar va QR-kodli ma'lumotnoma oladilar. Bu ularga faoliyatni rasman amalga oshirish, xizmatlar ko'rsatish va rasmiy daromadga ega bo'lish imkonini beradi.

Daromad solig'idan ozod etish. Imzolangan hukumat qarorlariga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar ko'rsatayotgan mehnat xizmatlari uchun tushayotgan daromadlari bo'yicha daromad solig'i to'lamaydilar. Bu ularning faoliyatini to'laqonli soliqqa tortishdan mustasno qiladi va daromadlariga biror-bir qo'shimcha mayda soliq yuki yuklanmasligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy sug'urta to'lovlarini ixtiyoriy to'lash. Mehnat staji hisoblanishi va pensiya to'planishi uchun o'zini o'zi band qilganlar yillik bir marotabalik bazaviy hisoblash miqdori (BHM) atrofidagi sug'urta badalini ixtiyoriy tartibda to'lashi mumkin. Bunday imkoniyat ularga staj yig'ish va faqat rasmiy ish joyiga ega bo'lganlarga xos huquqlardan qisman foydalanish imkonini beradi.

Aylanma daromad solig'ining past stavkalarda joriy etilishi. Agar o'zini o'zi band qilgan shaxsning yillik daromadi 100 mln so'mdan oshsa, 2026 yildan boshlab aylanma solig'ining 1 foizli yengillashtirilgan rejimi qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Bu soliq muhitida yengillik yaratib, ularni tadbirkorlik faoliyatiga

o'tishga tayyorlaydi.

Bank va kredit imtiyozlari. Ro'yxatdan o'tgan o'zini o'zi band qilingan shaxs sifatida olinadigan QR-kodli ma'lumotnoma orqali banklar mikrocredit ajratishda ularni rasmiy mijoz sifatida qabul qila boshlagan. Shuningdek, ular davlat grant dasturlarida ham ishtirok etish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlar mehnat bozorida muhim ijtimoiy-iqtisodiy qatlam sifatida shakllanar ekan, davlat tomonidan ularni huquqiy maydonga jalb qilish va qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator imtiyozlar yaratilgan. Ro'yxatdan o'tishning soddalashtirilishi, daromad solig'idan ozod etilgan rejim, ixtiyoriy ijtimoiy to'lovlar orqali staj to'plash, past stavkadagi aylanma soliq qo'llash va kredit-grant imkoniyatlari ularning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bosh maqsad – o'zini o'zi band qilganlarni norasmiy sektordan rasmiy iqtisodiyotga jalb etish, ularning mehnat huquqlari va ijtimoiy himoyasini bosqichma-bosqich ta'minlashdan iboratdir.

O'zini-o'zi band qilgan aholini tadbirkorlik faoliyatiga bosqichma-bosqich transformatsiya qilish mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida milliy rivojlanish strategiyalarida mustahkam o'rin olgan. Bu yo'nalish holatiga yondashilganda, Harakatlar strategiyasi (2017–2021), Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) va "O'zbekiston–2030" strategiyalari o'zaro uzviylikda bir-birini to'ldiruvchi vazifalarni amalga oshirgani va transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich kuchaygani ko'riladi.

Avvalo, 2017–2021 yillardagi Harakatlar strategiyasida o'zini-o'zi band qilganlar masalasi tadbirkorlik siyosatida institutsional tan olish bosqichidan o'tdi. "Har bir oila – tadbirkor", "Hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash"

kabi dasturlar orqali aholining yakka tartibda, norasmiy shartlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanugan qismi qonuniy maydonga jalb etildi. Bu bosqich o'zini-o'zi band qilishni rasmiy mehnat bozoriga integratsiya qilish va patent-soliq mexanizmlarini kiritish orqali tadbirkorlikka o'tish uchun ilk fundamentni yaratdi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida esa o'zini-o'zi band qilganlarni tadbirkorlik sub'ektlariga aylantirish jarayoni faol transformatsiya bosqichiga o'tdi. Bu davrda “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” kabi adreslangan dastaklar orqali grantlar, imtiyozli kreditlar, ta'lim va treninglardan iborat kompleks kokteyl joriy etildi. Mahallabay yondashuv orqali (bitta mahalla – bitta tadbirkor tamoyili) o'zini-o'zi band qilgan har bir fuqaroning resurs va qobiliyati baholanib, mikromoliyalashtirish, maslahat ko'mak va biznes qurilishida hamrohlik qilish orqali tadbirkorlik tuzilmalariga o'tish

tezlashtirildi. Bu esa nafaqat iqtisodiy faollikni oshirdi, balki ijtimoiy tenglikka asoslangan inklyuziv o'sish talabi bilan ham moslashdi.

O'zbekiston–2030 strategiyasi bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqadi: unda o'zini-o'zi band qilganlarning muayyan qismini rejali ravishda mikro-, kichik va o'rta biznesga aylantirish uchun klaster, raqamli platforma, biznes inkubator va akseleratorlar tizimi barpo etish ko'zda tutilgan. Maxsus tarzda belgilangan maqsad – o'zini-o'zi band qilganlarning 50%ni mikro-biznesga va 20%ni kichik biznesga aylantirish bo'lib, bu jarayon o'z ichiga bozorga kirish, texnologik yangilanish va innovatsion mahsulotlarni iste'moligacha yetkazib berish zanjiriga integratsiya qilishni qamrab oladi. Shu tariqa, o'zini-o'zi band qilish iqtisodiy kategoriyasi norasmiy mehnatdan – formallashgan tadbirkorlik sub'ektlarigacha bo'lgan evolyusiya jarayoni sifatida qaraladi va ushbu jarayon institutsional, moliyaviy va texnologiyaviy mexanizmlar bilan ta'minlanmoqda.

3-jadval

O'zbekiston milliy rivojlanish strategiyalarida o'zini o'zi band qilish tizimining transformatsiyasi

Strategiya	Davr	Asosiy chora-tadbirlar	Izoh
2017–2021 yy. Harakatlar strategiyasi (5 ta ustuvor yo'nalishlar)	I bosqich	– Aholining mehnat faolligini oshirish uchun “Har bir oila – tadbirkor” dasturi;– Yakka tartibdagi mehnat faoliyatini soddalashtirish;– O'zi-o'zini band qilish huquqiy maqomini belgilash (patent, onlayn ro'yxatdan o'tish).	O'zi-o'zini band qilganlarga qonuniy faoliyat yuritish imkoni berilib, tadbirkorlikka o'tish uchun ilk shart-sharoitlar yaratildi.
2022–2026 yy. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (7 ta ustuvor yo'nalishlar)	II bosqich	– Mahallabay ishlash (“Mahallabay ish o'rinlari”);– “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” orqali grant va kreditlar;– Potensialga qarab o'qitish: “1 ta mahalla – 1 ta tadbirkor” tamoyili;– Yakka tartibdagi bandlarni subsidiya va kredit bilan	O'zi-o'zini band qilib kelgan aholi faol tadbirkorlik sub'ektlariga aylanishi uchun moliyaviy va ta'limiy mexanizmlar joriy etildi.

		tadbirkorlikka o'tkazish.	
2023–2030 yy. “O‘zbekiston– 2030” strategiyasi	III bosqich	– Mahalla boshlang‘ich biznes inkubatorlarini barpo qilish;– O‘zini o‘zi band qilganlarni raqamli platforma asosida katta bozorlarga chiqarish;– O‘zini o‘zi bandlardan 50%-ini mikrobiznesga, 20%-ini kichik biznesga transformatsiya qilish maqsadi;– Aniq sektorlar bo‘yicha klasterlashtirilgan ko‘maklashuv (qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, hunarmandchilik).	O‘zi-o‘zini band qilganlarni rejali ravishda tadbirkorlik yo‘nalishlariga o‘tkazish: raqamlashtirish, bozor integratsiyasi va klaster negizida o‘sishga uzviy bog‘langan.

Xulosa qilib aytganda, o‘zini-o‘zi band qilganlardan tadbirkorlik sektoriga o‘tish – bu faqatgina mehnat bozorida formallashuv emas, balki iqtisodiyotning tarkibiy yangilanish jarayonidir. Ushbu transformatsiya natijasida aholi tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega bo‘lib, hududiy rivojlanish drayveriga aylanadi, soliq bazasi kengayadi va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatida barqaror ta‘sir ko‘rsatiladi. Shu nuqtai nazardan milliy strategiyalar kelgusida ham o‘zini-o‘zi band qilganlarni tadbirkorlik to‘lqiniga bosqichma-bosqich uzluksiz o‘tkazishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayon davlatning iqtisodiy o‘sish arxitekturasida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning faoliyat yo‘nalishlari turli sohalarda joylashgan bo‘lib, asosan mehnat ko‘nikmasi, qo‘ldagi resurs va bozor ehtiyojlariga qarab shakllanadi. Ularning katta qismi xizmat ko‘rsatish sohasida jamlangan. Bu yo‘nalishga sartaroshlik, tikuvchilik, kosmetolog, repetitor, ta‘mirchi (elektrik, santexnik, usta), hamda kurerlik kabi xizmatlar kiradi. Ushbu xizmatlar uchun katta investitsiya talab qilinmaydi va ular aholi o‘rtasida doimiy talabga ega.

Ikkinchi yirik yo‘nalish – kichik savdo va hunarmandchilik hisoblanadi.

Bunga bizdagidek uy sharoitida tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini (qurut, varene, pechene), milliy hunarmandchilik buyumlarini (qo‘lda yasalgan toqilar, qizilmoy idishlari, suvenirilar) tayyorlab sotish, bozorlarda chakana savdo bilan shug‘ullanish kabi faoliyatlar kiradi. Ko‘plab ayollar ana shu shakl orqali o‘zini o‘zi band qilgan toifaga kirmoqda.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati ham o‘zini o‘zi band qilganlar orasida keng tarqalgan. Tomorqa xo‘jaligi asosida sabzavot-poliz, mevalar yetishtirish, parrandachilik yoki chorvachilik qilish, asalchilik, quyonchilik bilan shug‘ullanish bu toifaning qishloq joylardagi asosiy iqtisodiy manbai hisoblanadi. Ko‘p hollarda bunday ishlarning mahsulotlari bozorga sotiladi yoki qayta ishlab qo‘shimcha qiymat yaratiladi.

Oxirgi yillarda raqamli iqtisodiyot imkoniyatlari kengayishi natijasida zamonaviy yo‘nalishlar – frilans, grafik dizayn, SMM ko‘mak, tarjimonlik, IT xizmati, onlayn o‘qitish, blogerlik va kopirayting ham o‘zini o‘zi band qilish faoliyatlar qatoriga kirib keldi. Bu turdagi faoliyatlar asosan yoshlar o‘rtasida tarqalayotgan bo‘lib, internet va raqamli platformalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, qurilish sohasidagi ustalar – yog‘ochsoz, plitka qoplovchi, metallokonstruksiya ustalari, gipsokartonchi va boshqa hunarmandlar ham o‘zini o‘zi band qilganlar qatoriga kiradi. Ular ko‘proq chaqiruv asosida yoki shartnoma asosida qisqa muddatli buyurtmalarni bajaradi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilganlar faoliyati xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik-savdo, qurilish hamda raqamli mehnat yo‘nalishlarida jamlangan bo‘lib, ularning aksar qismi kichik investitsiya va shaxsiy mehnatga tayanadi. Bu esa o‘zini o‘zi band qilishning jamiyatda nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi muhim omillardan biriga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazaridan biz quyida o‘zini o‘zi band qilganlar ulushining O‘zbekistondagi asosiy faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanishi ...-jadvalda keltirib o‘tamiz. 2.1.4 - jadval o‘zini o‘zi band qilganlar faoliyatining sohalar bo‘yicha taqsimlanishini ifodalaydi va ushbu toifadagi shaxslar mehnat faoliyati

asosan qaysi yo‘nalishlarda faoliyat yuritaytganini ko‘rsatadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zini o‘zi band qilganlarning katta qismi mehnat bozorining mehnat ko‘nikmalariga talabi unchalik yuqori bo‘lmagan, lekin doimiy iste‘mol ehtiyojlariga xizmat qiladigan xizmat ko‘rsatish sohalarida to‘plangan (35–37 %). Bu holat xizmat ko‘rsatish sohasida kichik mablag‘ bilan ish boshlash imkoniyati borligi, bozorda doimiy talab mavjudligi va ko‘p hollarda uydan turib faoliyat yuritish imkoni bo‘lgani bilan izohlanadi.

Ikkinchi yirik segment qishloq xo‘jaligi faoliyatiga to‘g‘ri kelib, ular umumiy o‘zini o‘zi band qilganlar tarkibining 25–28 % atrofni tashkil etadi. Bu – asosan qishloq joylarda yashovchi aholi uchun eng realistlik va an‘anaviy faoliyat yo‘nalishi hisoblanadi. Tomorqa ho‘jaligi, chorva parvarishi, asalchilik va parrandachilik kabi faoliyatlarda ishlash uchun rasmiy ish joyi talab etilmaydi, shu bois o‘zini o‘zi band qilishning ushbu shakli qishloq hududlarida ijtimoiy himoya va bandlikni ta‘minlovchi muhim omilga aylangan.

4-jadval

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilganlarning faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlanishi

№	Faoliyat yo‘nalishi	Ulushi (%)	Izoh
1	Xizmat ko‘rsatish (sartarosh, repetitor, usta, tikuvchi, kosmetolog va h.k.)	32 %	Eng keng tarqalgan yo‘nalish, ayniqsa shaharlarda
2	Qishloq xo‘jaligi (tomorqa, chorva, parranda, asalchilik)	28 %	Asosan qishloq hududlardagi o‘zini o‘zi bandlar
3	Savdo-hunarmandchilik (uy sharoitida tayyorlab sotish, bozorda chakana savdo)	20 %	Kichik daromad manbasi, ko‘pincha ayollar ishtirok etadi
4	Qurilish va hunarmand ustalar	9 %	Yog‘ochsoz, plitkachi, metallchi, gipsokartonchi va h.k.
5	Raqamli/intellektual mehnat (frilans, IT, SMM, onlayn o‘qitish)	6 %	Asosan yoshlar o‘rtasida, yuqori talabga ega yangi

			yo'nalish
6	Boshqa (san'atkorlik, transport, kir yuvish va h.k.)	5 %	Kamroq uchraydigan ixtisoslashgan xizmatlar

Savdo-hunarmandchilik ko'rinishidagi faoliyat turlari (20 %) esa asosan ayollar bandligi uchun mos bo'lib, uy sharoitida mahsulot tayyorlab sotish, milliy hunarmandchilik buyumlari yasash kabi kichik biznes shakllarini qamrab oladi. Bu turdagi faoliyat ham qishloq, ham shahar hududlar ziyoli ayollari o'rtasida daromad manbai sifatida kengaymoqda.

Qurilish va hunarmand ustalari – umumiy tarkibning 9 % ni tashkil etib, asosan mavsumiy yoki chaqiruv asosidagi mehnat xizmatini bajaradigan shaxslardan tarkib topgan. Bu segmentda asosan yosh va o'rta yoshdagi erkaklar faoliyat yuritadilar.

Raqamli va intellektual mehnat shakli (6 %) hozircha umumiy strukturada nisbatan kichik ulushni egallasa-da, ayniqsa so'nggi ikki yilda jadal o'sish tendensiyasiga ega. Frilans, IT-xizmatlar, blogerlik, raqamli marketing, grafik dizayn kabi yo'nalishlar bugungi kunda yoshlar uchun yuqori daromadli va erkin faoliyat maydonini yaratib berayotir.

Jadvaldagi "boshqa" faoliyat turlari (5 %) esa transporti xizmatlari, musiqa va san'at, chiller va boshqa ixtisoslashgan xizmatlarni qamrab oladi. Bu o'ta ixtisoslashgan kesimdagi mehnat turlari bo'lib, umumiy ulushi past bo'lgani bilan mehnat bozori diversifikatsiyasini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zini o'zi band qilganlar mehnat faoliyatining asosiy qismi tarkiban mehna ko'nikmalari darajasi past, tadbirkorlik ko'nikmasi kuchli talab qilinmaydigan xizmatlar va qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelmoqda. Raqamli mehnat va intellektual xizmatlar ulushi hozircha yetarlicha yuqori emas, ammo ular kelajakda mehnat bozorida o'zini o'zi band

qilishning yangi strategik yo'nalishiga aylanishi kutilmoqda. Shu bois, davlat siyosatining ushbu yo'nalishlar bo'yicha qayta tayyorlash (upskilling) va raqamli faoliyat turlariga o'tkazish orqali o'zini o'zi band qilganlarning sifati tarkibini yaxshilashga yo'naltirilishi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston mehnat bozorida o'zini o'zi band qilish aholining katta qismini qamrab olgan muhim sektor hisoblanib, ushbu toifadagi faoliyat yo'nalishlari jins va yosh guruhlari kesimida turlicha taqsimlangan. Ayollar ko'proq uy sharoitida bajarish mumkin bo'lgan an'anaviy xizmatlar va hunarmandchilik sohasida yetakchilik qilsa, yoshlar esa raqamli texnologiyalar, harakatchanlik va jismoniy kuch talab qiladigan sohalarda ustunlik qiladilar. Bu holat mehnat bozorida ehtiyojlar va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan uzviy bog'liqdir.

Ayollar o'zini o'zi band qilishning asosiy qismida xizmat ko'rsatish va hunarmandchilik sohasiga jalb qilingan. Masalan, tikuvchilik va kiyim-kechak tayyorlash sohasida ishtirokchilarning taxminan 70–75 foizi ayollardan iborat. Oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash va qandolatchilik sohasida ularning ulushi 65–70 foizni tashkil qiladi. Sartaroshlik va kosmetologiya xizmatlarida ham ayollar salmog'i 60 foizdan ortiq. Bola parvarishi va repetitorlik xizmatlarida esa ayollar ulushi qariyb 65 foizga yetgan. Bu sohalarda ayollar ustunlik qilishining asosiy sabablari – uy mehnati bilan uyg'unlashuvi, katta sarmoya talab etmasligi va bozorda doimiy talab mavjudligidir.

Yoshlar esa zamonaviy va harakatchan mehnat turlarida ko'proq ishtirok etmoqdalar. Xususan, raqamli

xizmatlar va frilans sohasida yoshlarning ulushi taxminan 70 foizni tashkil etadi. Kurerlik va logistika xizmatlarida yoshlar salmog'i 75–80 foizga yetadi. Qurilish va ustachilik sohalarida ularning hissasi 65–70 foiz atrofida. Onlayn savdo, SMM va IT xizmatlarida ham yoshlar ulushi 60–65 foizni tashkil etadi. Bu holat yoshlarning texnologiyaga moyilligi, yangi imkoniyatlarni tez o'zlashtirishi va jismoniy kuch resurslarining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Masalan, Xindistonda o'zini o'zi band qilganlar umumiy ishchi kuchining taxminan 45 foizini tashkil qiladi, ular orasida ayollar asosan qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda (50 foizdan ortiq), yoshlar esa IT-outsourcing va raqamli xizmatlarda yetakchi. Janubiy Koreyada o'zini o'zi band qilganlar ulushi 25–27 foiz atrofida, IT va servis sohalarida yoshlar salmog'i yuqori, ayollar esa kichik xizmat va parvarish sohalarida faol. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida o'zini o'zi band qilganlar ulushi o'rtacha 15–18 foiz bo'lib, ayollar ko'proq sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida, yoshlar esa IT va startaplarda ishtirok etmoqda. Rossiyada esa 2019 yildan joriy etilgan tizim orqali 2024 yilga kelib 10 mln kishi ro'yxatdan o'tgan. Ular orasida ayollar xizmat ko'rsatish va chakana savdoda, yoshlar esa kurerlik va onlayn xizmatlarga ko'proq jalb etilgan.

O'zbekistonda ayollar o'zini o'zi band qilishning tikuvchilik, ovqat mahsulotlari tayyorlash, repetitorlik va kosmetologiya sohalarida yetakchi bo'lsa, yoshlar raqamli xizmatlar, kurerlik, transport va qurilish sohalarida ustun. Bu tendensiya xorijiy mamlakatlardagi holat bilan uyg'un, farqi shundaki – rivojlangan davlatlarda raqamli xizmatlarda yoshlar ulushi yuqori, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ayollar asosan qishloq xo'jaligida faol. Shu bilan birga, O'zbekiston mehnat bozori uchun muhim

vazifa – ayollarni innovatsion xizmatlarga, yoshlarni esa tadbirkorlik va raqamli yo'nalishlarga yanada ko'proq jalb qilishdir.

Har qanday faoliyat kabi o'zini o'zi band qilish ham vaqt sinovidan o'tadi. Shu bois uning yashovchanlik davrini aniqlash iqtisodiy tahlil uchun juda zarur. O'zini o'zi band qilish faoliyatining yashovchanlik davrini aniqlashda xalqaro va mahalliy tajribalar ko'rsatadiki, bu jarayon ko'p jihatdan bozordagi talab va raqobat darajasiga bog'liq.

1. Qisqa muddatli faoliyatlar (1–2 yil): O'zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022 yilgi ma'lumotlariga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan 1,5 millionga yaqin o'zini o'zi band qilgan shaxslardan taxminan 22 foizi (ya'ni 330 ming nafarga yaqini) 2 yil ichida faoliyatni to'xtatgan. Bular orasida asosan mavsumiy xizmatlar (masalan, yoz mavsumida sovuq ichimlik sotish, hashar vaqtida qurilish ishlari) va raqobatbardoshligi past kichik xizmatlar mavjud.

2. O'rta muddatli faoliyatlar (3–4 yil): Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2023 yillarda o'zini o'zi band qilganlar orasida 32–34 foiz faoliyat turlari 3–4 yil davom etgan. Masalan, kichik savdo do'konlari, kosmetik xizmatlar, tikish-bichish ishlari va onlayn xizmatlar. Ularning bir qismi keyinchalik tadbirkorlikka aylanib, MChJ sifatida ro'yxatdan o'tgan, boshqalari esa raqobatga dosh berolmagan.

3. Uzoq muddatli faoliyatlar (5–10 yil va undan ortiq): Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, ta'lim sohasidagi repetitorlik xizmatlari, maishiy ta'mir va ustachilik xizmatlari 35–40 foiz hollarda uzoq muddat yashaydi. Masalan, Jahon bankining 2021 yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda kichik repetitorlik xizmatlari bilan shug'ullanuvchi o'zini o'zi

band qilganlarning 37 foizi 5 yildan ko‘proq vaqt davomida o‘z faoliyatini saqlab qolgan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida qayta ishlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarning 40 foizga yaqini 7–10 yildan ziyod vaqt davomida barqaror ishlayotgan.

Masalan, Janubiy Koreya tajribasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar orasida 5 yildan ortiq faoliyat yuritish darajasi 42 foizni tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonnikiga yaqin.

AQShda kichik biznes agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra, kichik biznes va o‘zini o‘zi band qilganlarning 20 foizi 2 yildan keyin faoliyatni to‘xtatadi, 50 foizi 5 yildan keyin ham ishini davom ettira oladi.

Rossiyada esa, 2019–2022 yillarda “o‘zini o‘zi band qilish rejimi”dan foydalanganlarning taxminan 25 foizi 2 yildan keyin bozordan chiqib ketgani qayd etilgan.

Yuqoridagi raqamlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilganlarning taxminan 20–25 foizi qisqa muddatli (1–2 yillik) yashovchanlikka ega, 30–35 foizi o‘rta muddatli (3–4 yillik)

davomiylikka ega va 35–40 foizi uzoq muddatli (5–10 yillik) yashovchanlik bilan tadbirkorlikka aylanish imkoniyatiga ega. Demak, o‘zini o‘zi band qilishning barqarorligi uchun asosiy omillar — bozor talabini o‘rganish, xizmatlar sifatini oshirish, raqobat ustunliklarini yaratish va tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Xorijiy tajribalar ham shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakatda o‘zini o‘zi band qilishning muvaffaqiyati davlat qo‘llab-quvvatlash siyosati va aholidagi tadbirkorlik madaniyatiga bog‘liq.

O‘zini o‘zi band qilishning barqarorligi va uzoq muddatli samaradorligi ko‘p jihatdan uning tadbirkorlikka aylanish imkoniyati bilan belgilanadi. Agar o‘zini o‘zi band qilganlardan muayyan qismi tadbirkorlikka transformatsiyalansa, bu mamlakatda kichik biznes ulushi oshishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va mahalliy iqtisodiyot rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, yillar kesimida o‘zini o‘zi band qilganlardan qanchasi tadbirkorlikka o‘tayotganini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

5-jadval

O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilganlardan tadbirkorlikka o‘tganlar ulushi

Yil	O‘zini o‘zi band qilganlar soni (mln)	Tadbirkorlikka o‘tganlar ulushi (%)	Tadbirkorlikka o‘tganlar soni (ming)
2020	1,1	15,2 %	167
2021	1,3	16,4 %	213
2022	1,6	17,1 %	273
2023	2,9	18,3 %	530
2024	3,0	19,7 %	591

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2020–2024 yillar davomida O‘zbekistonda o‘zini o‘zi band qilganlar soni keskin o‘sgan. Agar 2020 yilda ular 1,1 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,0 mln kishiga yetgan. Bu 4 yil ichida o‘zini o‘zi band qilganlar soni qariyb 3,5 barobar ko‘payganini anglatadi. Biroq e‘tiborli

jihati shundaki, o‘zini o‘zi band qilganlardan tadbirkorlikka o‘tayotganlar ulushi keskin emas, balki asta-sekin o‘smoqda. Bu raqamlardan ko‘rinib turibdiki, tadbirkorlikka o‘tayotganlar ulushi har yili o‘rtacha 1-1,5 foiz atrofida o‘sib bormoqda. Natijada besh yil ichida o‘zini o‘zi band qilganlar orasida

tadbirkorlikka o'tganlar soni qariyb to'rt baravar ko'paygan bo'lsa-da, ularning umumiy ulushi hali ham 20 foizdan kam. Demak, o'zini o'zi band qilganlarning asosiy qismi - taxminan 60–65 % - faqat o'zini ta'minlash uchun kichik faoliyat bilan cheklanib qolmoqda. Qolgan 20–25 % faoliyat esa qisqa muddatli bo'lib, 1–2 yil ichida bozordan chiqib ketmoqda. Shu sababdan transformatsiya jarayoni sekin kechmoqda.

Xulosa

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilish tizimi aholini ish bilan ta'minlashning samarali usuli sifatida tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Biroq uning tadbirkorlikka aylanish darajasi hali past va asta-sekin o'smoqda: 2020 yilda 15,2 % bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 19,7 % ga yetgan. Bu holat shuni anglatadiki, o'zini o'zi band qilganlarni tadbirkorlikka o'tkazish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Xususan:

- moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish,
- bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish,
- biznes ko'nikmalarini rivojlantirish uchun trening va ta'lim dasturlarini joriy etish,
- soliq va hisobot tizimini yanada soddalashtirish.

Shundagina o'zini o'zi band qilish faoliyati qisqa muddatli daromad manbai emas, balki uzoq muddatli va barqaror tadbirkorlikka aylanib, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes ulushini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning keyingi boblarida o'zini o'zi band qilish faoliyatini tadbirkorlikka transformatsiya qilish imkoniyatlari va yo'nalishlari keng yoritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezidentning O. R. 2022—2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'IRISIDA //Farmoni. – 2022. – T. 28. – C. 90-92.
2. Islamovna X. S. AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – T. 4. – №. 03. – C. 390-396.
3. Shukurullayevich R. S. TADBIRKORLIK FAOLIYATI-IQTISODIYOT VA AHOLI FARAVONLIGI TAYANCHI //TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 475-480.
4. Sagdullaev U., Sagdullayev U. Ways to Improve the National System of Public Service Provision in the "Mahalla" System //Advanced Economics and Pedagogical Technologies. – T. 2. – №. 1. – C. 298-304.
5. Mahmudovich S. Q. YANGI O'ZBEKISTON RIVOJIDA MAHALLA FUQAROLAR YEG'INI RAISING ROLI //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 3. – №. 36. – C. 147-150.
6. Xurshidbek o'g'li S. X. SAMARALI BANDLIK VA AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH HAMDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH // "YURT FAXRI". – 2025. – T. 1. – №. 1.
7. Nizametdinov A., Izzatullayev A. O'ZBEKISTONDA "ELEKTRON HUKUMAT" TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING KORRUPSIYA VA XUFIYONA IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI ROLI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14560409> //International scientific and practical conference. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 119-123.